

LISONIY SHAXS VA UNING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIIY OMILNING O'RNI

Marhabo Egamberdiyevna UMURZOQOVA

PhD, dotsent

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ И РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ФАКТОРА В ЕЕ ФОРМИРОВАНИИ

Мархабо Эгамбердиевна УМУРЗАКОВА

PhD, доцент

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени

Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

LANGUAGE IDENTITY AND THE ROLE OF THE SOCIAL FACTOR IN ITS FORMATION

Markhabo Egamberdievna UMURZAKOVA

PhD, Associate Professor

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan umurzakovamarkhabo@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 81'42

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Umurzoqova M.E. Lisoniy shaxs va uning shakllanishida ijtimoiy omilning o'ri. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 110-118.

<https://doi.org/10.36078/1703966037>

Received: October 17, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Lisoniy shaxs tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uni tilshunoslikning pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalar o'rganadi. Tilshunoslikda shu sohalarining kesishmasida nisbatan yangi soha lingvopersonologiya shakllandi. Har bir til egasi alohida shaxs sifatida tildan foydalanish imkoniyatlarini o'ziga xos tarzda namoyon qiladi. Uning til ko'nikmalarini egallashida turli omillar, xususan, sotsial omillarning ham o'ri bor. Ushbu maqolada shunday omillardan biri oilaning lisoniy shaxsning namoyon bo'lishidagi o'ri masalasiga e'tibor qaratildi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishida oilaning o'ri qanchalik muhim bo'lsa, uning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida ham oiladagi muhit muhim sanaladi. Oila mansub bo'lgan jamoaning madaniy an'analari, axloqiy muhit, diniy mansublik, yashash joyi, ota-ona lisoniy shaxsi, ota-onaning kasb-kori, mutolaa madaniyati, qo'shnilar bilan munosabati kabilar lisoniy shaxsning shakllanishida muhim sanaladi. Lisoniy shaxs deganda, faqat nutq yarata oladigan va uni tushunadigan shaxs emas, uning grammatik xususiyatlarini ham biladigan, ifoda imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan, o'ziga xos nutq tuza oladigan til egasi nazarda tutiladi. Maqolada badiiy diskursda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida oilaning ta'siri, uni ifodalashda matn yaratuvchining mahorati masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: lingvopersonologiya; lisoniy shaxs; ijtimoiy omil; lisoniy shaxs tiplari; lisoniy portret; tafakkur; madaniyat; ijtimoiy mavqe; diskurs.

Аннотация. Понятие языковой личности многогранно и изучается такими разделами языкознания, как прагмалингвистика, психоллингвистика, социоллингвистика,

когнитивная лингвистика, лингвокультурология. На стыке этих областей в языкознании образовалась сравнительно новая область — лингвоперсонология. Каждый носитель языка, как отдельная личность, по-своему показывает возможности использования языка. На приобретение им языковых навыков влияют различные факторы, в частности, социальные факторы. В данной статье внимание уделено вопросу о роли семьи в проявлении языковой личности и среда в семье в формировании человека как языковой личности. Важными в формировании языковой личности считаются культурные традиции сообщества, к которому принадлежит семья, моральная среда, религиозная принадлежность, место жительства, языковая личность родителей, профессия родителей, культура чтения, взаимоотношения со сверстниками. Лингвистическая личность — это не только человек, способный создавать речь и понимать ее, но и знающий ее грамматические особенности, способный раскрыть возможности выражения. Имеется в виду человек, способный создать уникальную речь. В статье уделяется внимание вопросу влияния семьи на проявление языковой личности в художественном дискурсе и мастерство создателя текста в ее выражении.

Ключевые слова: лингвоперсонология; языковая личность; социальный фактор; типы языковой личности; языковой портрет; мышление; культура; социальная позиция; дискурс.

Abstract. The concept of linguistic identity is multifaceted, as it is the object of pragmatolinguistics, psycholinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, and linguocultural studies. Each language speaker, as a separate person, shows the possibilities of using the language in his/her own way. Various factors influence their acquisition of language skills, particularly social factors also play a role. The article deals with the question of the role of the family in the manifestation of the language identity. As much as the role of the family is important in the formation of a person, the environment in the family is also considered to be essential in the formation of a person as a language identity. Cultural traditions of the community to which the family belongs, moral environment, religious affiliation, place of residence, parent's language identity, parent's occupation, etc. are considered important in the formation of the language identity. The article focuses on the issue of the influence of the family on the manifestation of the language identity.

Keywords: linguopersonology; linguistic personality; social factor; types of linguistic personality; linguistic portrait; thinking; culture; social position; discourse.

Kirish. Kommunikativ muloqotda jamiyat a'zolarining dunyoni anglash jarayonida to'plagan lingvistik hamda madaniy bilimlari namoyon bo'ladi. Til asrlar davomida shakllangan qadriyatlar; urf-odatlar; jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarining in'ikosi sifatida yashaydi. Shu tilga oid bilimlarni egallagan; undan nutq jarayonida foydalana oladigan til egasi lisoniy shaxs sanaladi. Inson muloqotga kirishar ekan; shubhasiz; nutqida uning ichki dunyosi; ruhiyati; individualligi aks etadi. Lisoniy shaxs yagona; takrorlanmas bo'lib; har doim ham aql-zakovat; ta'lim; axloq va boshqa ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq bo'lavermaydi. Lisoniy shaxsning voqelanishi; xususan; badiiy adabiyotda namoyon bo'lishi oson jarayon emas. Lisoniy shaxsning voqelanishida turli omillar; xususan; ijtimoiy omillar muhim sanaladi.

Lisoniy shaxsning shakllanishida ta'sir qiluvchi omillarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: lingvistik va ekstralingvistik omillar. Ekstralingvistik omillar ichida ijtimoiy omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib; bunga lisoniy shaxsning shakllanishida kommunikativ muloqotni amalga oshiruvchi jamoalar — oila; maktabdagi tengdoshlar; do'stlar; mahalla; hamkasblarni kiritish mumkin. Ijtimoiy o'zaro ta'sir modeli degan tushuncha mavjud bo'lib; u o'zbek tiliga ham mos keladi. Lisoniy shaxs jamiyatda ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lib; u yerda ma'lum ijtimoiy rollarni bajaradi. Har bir rivojlangan tilda shu ijtimoiy rollar uchun o'ziga xos belgilar mavjud. Masalan; ota; ona; buvi; buva; bog'cha opa; o'qituvchi. Boshqa tillarda; xususan; rod tushunchasi bor tillarda ayolning ijtimoiy mavqeyini belgilash uchun alohida so'zlar; erkakning ijtimoiy mavqeyini belgilash uchun alohida so'zlar ishlatiladi. Masalan; o'zbek tilida tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan shaxs ayol bo'lsa; uni so'z birikmasi tarzida *tadbirkor ayol* birikmasi bilan ifodalash mumkin. Garchi o'zbek tilida rod tushunchasi bo'lmas-da; qaynana ayol kishiga; qaynata erkak kishiga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar ham borligini qayd etish lozim. Kishi muloqotga kirishar ekan; muloqot uchun eng maqbul yo'l va usullarni tanlaydi. Ijtimoiy omillar haqida so'z ketganda so'zlovchining murojaat birliklarini to'g'ri tanlashi ham muhimligini ta'kidlash kerak. Noto'g'ri tanlangan murojaat birligi nutqiy muloqotning muvaffaqiyatsiz chiqishiga olib kelishi mumkin. Masalan; bozordagi holat: — *Sumkalar qancha turadi? — Tanlayvering; kelishtirib beraman; kennayi. — Man sizga qanaqa kennayiman?* (og'zaki nutqdan).

Ko'rinib turibdiki; yosh qizga nisbatan *kennayi* deb qilingan murojaat uni ranjitadi; muloqotning uzilishiga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilgan ijtimoiy rol; bu yerda sotuvchi va xaridor lisoniy shaxsi ularning yoshi; jinsi bilan bog'liq holda voqelanadi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqning hosil bo'lishida shaxs omilining o'zigina yetarli emas. “Nutqiy aktning amal qilishi uchun shaxs omilidan tashqari nutq vaziyati; nutq obyekti (nutqiy aktga asos bo'lgan voqelik fragmenti) kabilar ham zaruriy omil sifatida ishtirok etadi. Nutqiy akt turlari umumiy mazmuniy guruhlariga birlashsa-da; turli ijtimoiy guruhlarda bir-biridan farqlanadi; hatto jamiyat a'zolarining har biri uchun individual xususiyatlarga ega bo'la oladi” (3, 25) Bundan ko'rinib turibdiki; nutqiy jarayonni yuzaga kelishida til egasi ishtirok etar ekan; individual xususiyatlar lisoniy shaxslarning voqelanishida muhim sanaladi. “Insonning jamiyatda egallagan maqomi va kundalik hayotda bajaradigan rollari uning sifat belgilari bo'lib; nutqida bevosita namoyon bo'ladi. Anglashiladiki; insonning ijtimoiy maqomi va roli nutqiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy omillardir” (4, 128). Lisoniy shaxsning namoyon bo'lishida uning ijtimoiy maqomi va roli muhim sanaladi. Lisoniy shaxs bir paytning o'zida bir necha rolda bo'lishi mumkin; ammo u qaysi rolda bo'lsa ham nutqidagi o'ziga xoslik; so'z qo'llashidagi individuallik; o'zgachalik; har bir vaziyatda tilning ifoda imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olishi uning lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xos qirralarini namoyon etadi.

Boshqacha aytganda; lisoniy shaxs sifatida boshqa til egalaridan ajratib turadi.

Tahlil metodlari. Tadqiqotda tavsifiy; semantik metodlar hamda diskursiv; sotsiopragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

O‘zbek adabiyotida A.Qodiriyning mahoratli yozuvchi sifatida lisoniy shaxs tiplarini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Badiiy asarda har bir qahramonning lisoniy portretini yaratish yozuvchidan til egasi sifatida til imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanishni talab etadi. Asarda badiiy qahramon bilan muloqotga kirishar ekan; kitobxon asar qahramonlarining nutq tuzishiga qarab ularni farqlay olsagina; yozuvchi tom ma’nodan lisoniy shaxsni shakllantira olgan deyish mumkin. Asarda Yusufbek hoji; O‘zbek oyim; Otabek; Mirzakarim qutidor; Kumush; Homid kabi qahramonlarni nutqidan; so‘z qo‘llashidan ajratib olish mumkin. Yozuvchi ularning nutqidagi o‘ziga xoslikni turli vositalar — so‘z qo‘llash; gap qurilishidagi o‘ziga xoslik orqali ochib beradi. “Har bir lisoniy shaxs o‘ziga xosdir; o‘zining kognitiv makoniga; til va undan foydalanish xususiyatlariga oid o‘ziga xos bilimga ega” (1, 49). Sh.Safarovning ta’kidlashicha; “Ijtimoiy status shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy o‘rni bilan belgilansa; ijtimoiy rolning mundarijasi esa unga ushbu jamiyatda ajratilgan talablar majmuasidan iboratdir” (5, 143). Demak; lisoniy shaxs ma’lum bir jamiyat a’zosi ekan; shu jamiyat qo‘ygan talablar majmuasidan chiqib keta olmaydi. Inson muloqotga kirishar ekan; kimgadir murojlat qiladi; muloqotga kirishish uchun kerakli lisoniy birliklarni tanlaydi. Lisoniy shaxsning voqelanishida murojaat birliklari ham muhim sanaladi. O‘zbek tilida *do‘stim*; *og‘ayni*; *uka*; *singlim* kabi birliklar bilan murojlat qilish so‘zlovchining ijtimoiy mavqeyni ham ko‘rsatadi.

Otabekning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida muhim ijtimoiy omillardan biri sifatida oiladagi muhitni olishimiz mumkin. Asarning boshidanoq Otabekning lisoniy shaxs sifatidagi o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Karvonsararoydagi ilk suhbatda Otabekni Hasanliga qilgan munosabatidan yaxshi tarbiya ko‘rgan; axloqli shaxs sifatida ko‘ramiz. Uning Hasanliga *ota* deb murojlat qilishi; sog‘ligini so‘rab keyin “*ba’zi ishlarni buyursam*” deb sukut qilishi yuksak axloq sohibi ekanligidan dalolat beradi. Qodiriy uni axloqli lisoniy shaxs sifatida asar oxirigacha mohirlik bilan olib boradi. Rahmatning “*Bu kishi kimingiz bo‘ladi; bek aka?*” degan so‘rog‘iga Hasanliga eshittirmasdan “*qulimiz*” deb birinchi shaxs; ko‘plik shaklida javob berishi ham bunga dalolatdir. Asarda Otabekning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhit; yaxshi tarbiya va otasi Yusufbek hojining lisoniy qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Mahoratli yozuvchi sifatida Abdulla Qodiriy buni yaxshi anglagan va tasvirlab bergan. Otabek ilmi; madrasa ko‘rgan va dunyo ko‘rgan; savdo ishini yaxshi biladigan hamda siyosiy-ijtimoiy; iqtisodiy masalalarni ham yaxshi biladigan lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi uning nutqida qo‘llanilgan har bir leksik birlikka muhim vazifa yuklay olgan. Shaxsning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uning dunyoqarashi; dunyoni anglashi va uni til vositasida ifodalashi bilan belgilanadi. Otabek bilan ilk suhbatda uning tengi yo‘q yigitlardan ekanligi suhbatdoshlar tomonidan e’tirof

etiladi. Ziyo shohichining “*Otaning bolasi-da*” deb baho berishi birgina suhbatdayoq uning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishi ijtimoiy omillar; xususan; oilaviy muhitning o‘rni kattaligini ko‘rsatib beradi.

Otabek lisoniy shaxsiga xos jihatlarni quyidagilar guruhlardagi munosabatiga ko‘ra tasniflash mumkin:

1. Ota-onaga munosabatida farzand; qaynana-qaynataga munosabatida kuyov lisoniy shaxsi.
2. Qo‘lostidagilarga munosabatida boshliq lisoniy shaxsi.
3. Hamkorlari bilan munosabatida savdogar lisoniy shaxsi.
4. Ayollariga munosabatida er lisoniy shaxsi.
5. Hukmron doira vakillariga munosabatida faol fuqaro lisoniy shaxsi.

Til egasi qaysi ijtimoiy maqomda bo‘lsa ham uni lisoniy shaxs sifatida birlashtirib turuvchi umumiy jihatlari bo‘ladi. Insonning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishida ijtimoiy mavqeyi ta‘sir ko‘rsatadi. Shaxsning jamiyatdagi ma‘lum bir mavqeyi; ijtimoiy roli ba‘zan boshqa rolda bo‘lganda ham ustunlik qilishi mumkin. Bu holatni A.Qahhor o‘zining notuq haqidagi hikoyasida mohirlik bilan ko‘rsatib bergan. “O‘tgan kunlar” romanida Otabek lisoniy shaxsi yoqrin namoyon bo‘lganligi bois biz faqat shu obraz haqida so‘z yuritmoqchimiz. Otabekning uylanishi bilan bog‘liq voqealar tasvirida ota va bola o‘rtasidagi dialogni tahlil qilib ko‘raylik.

— *O‘glim; hali sen eshitingmi; yo‘qmi; haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...*

— *Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma‘qul bo‘lmas.*

Keltirilgan parchada Otabek otasining qaysi mavzuda gap ochishini biladi; ammo yaxshi tarbiya ko‘rgan shaxs sifatida javob beradi. Ya‘ni; ota-onasining aqlli ekanliklari; farzandiga yomonlikni tilamasligini aytish bilan birga o‘z maqsadiga ishora qiladi. Tabiiyki; uning so‘z qo‘llashidan otasi uning maqsadini anglaydi; o‘ng‘aysiz ahvolga tushadi. Ota-bola tabiatiga zid tabiatga ega O‘zbek oyim esa o‘g‘lining so‘z qo‘llashdagi pragmatik maqsadini anglamaydi. *Men sizlarning orzularingizni bajarishka — agar xursandchiligingiz shu bilan bo‘lsa — har vaqt roziman.* Bu gapdan ota-onaga itoatkor; ammo o‘z nuqtayi nazariga ega farzand lisoniy shaxsi namoyon bo‘ladi.

Otabekning qaynata va qaynanasi bilan bo‘lgan dialogida ham og‘ir; vazmin; har gapni o‘ylab gapiradigan mulohazakor lisoniy shaxsni ko‘rishimiz mumkin. Ota-ona roziligi uchun ikkinchi bor uylanishga ko‘ngan; ammo Marg‘ilonga kelib bu fikridan qaytgan oshiq yigit maqomidagi Otabek lisoniy shaxsi yozuvchi mahorati bilan ishonchli gavalantirilgan.

— *Hamma aybni manim ustimga yuklab javob yozingiz.*

Qutidor kuldi va so‘radi:

— *Toshkandda ekan chog‘ingizda otangizning taklifini qabul qilgan edingizmi?*

— *Qabul qilgan edim.*

— *Bizning ruxsatimizni olg‘ali Marg‘ilong‘a ham kelgan edingiz; shundog‘mi?*

- *Shundog'...*
 — *Barakalla; Marg'ilong'a kelib bu gapdan aynadingiz-a?*
 — *Aynadim...*
 — *Endi Toshkandga Marg'ilondan aynib borasiz?*
 — ...

Ushbu dialogda oshiq rolidagi Otabek lisoniy shaxsida bolalarcha soddalik; beg'uborlik ko'rinadi. Mulohazali; o'ylab ish ko'radigan yigitning ushbu holatda shunday namoyon bo'lishi ishonarli chiqqan. Bu vaziyatni yozuvchi o'zining *bolalik harakatidan seskandi va xijolat orasida so'radi* gapini keltirish bilan izohlaydi. Bu vaziyatda Otabek Qutidor oldida kuyov maqomida; tabiiyki; o'zbeklarda kuyovning qaynata oldida bolalarcha fikrlashi maqbul emas. Ammo Otabek xarakteridagi samimiylik uni bolalarcha fikr yuritishiga; bu o'rinda biroz o'jar; qaysar farzand sifatida gavdalanishiga monelik qilmaydi. Otabekning ushbu holatdagi ijtimoiy mavqeyi suyuqli kishisining otasiga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishiga; voqelikka nisbatan o'zining norozilik pozitsiyasida turganligini ko'rsatishiga yo'l ochadi.

Otabekning onasi O'zbek oyim bilan Zaynab masalasidagi tortishuvlarida ham odob doirasidan chiqmasligi; ammo har doim o'z pozitsiyasiga ega shaxs ekanligi sezilib turadi.

— *So'zimni eshitasanmi; kar?*

Otabek sovuqqina qilib javob berdi:

— *Kar emasman; lekin sizning bu taklifingiz oldida ham kar; ham ko'rman. Bu to'g'rida siz endi ortiqcha bosh og'ritmang!*

— *Insofsiz; adolatsiz!*

Otabek zaharxanda bilan so'radi:

— *Men boshda sizga nima degan edim?*

E'tibor berilsa; asarda Otabekning har doim ham yaqin kishilariga *ota; ona* deb murojaat qilishi ko'zga tashlanmaydi. Yozuvchi qahramoni ruhiyatidagi turli holatlarni shu tariqa ifoda etadi.

O'zbek tilshunosligida so'zlashuv nutqi sintaksisi yuzasidan tadqiqot olib borgan B.O'rinboyev dialog nutq tuzilishining asosiy ko'rinishlaridan biri ekanligini qayd etadi hamda dialogni ijtimoiy nutqiy aloqalarning tabiiy shakllaridan biri deb hisoblaydi (7, 19). Lisoniy shaxsning o'ziga xos jihatlarini ajratishda uning ijtimoiy mavqeyi muhim sanalar ekan; kommunikativ aloqa jarayonida jamiyat a'zolarining lisoniy shaxs sifatida voqelanishi badiiy asarda dialogik nutqda yorqinroq namoyon bo'ladi. Jonli so'zlashuv nutqining turli ijtimoiy qatlamlarga xoslanishi sotsilingvistikaning o'rganish obyekti bo'lsa; nutq jarayonida muloqotga kirishayotgan shaxslarning nutq vaziyatidan kelib chiqib biror maqsadni qo'yishi pragmatikaning obyektidir. Bu ikki yo'nalishning kesishish nuqtasi sotsiopragmatikani yuzaga keltiradi. Demak; shaxs biror ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib; nutq vaziyatiga mos nutq ko'rinishini tanlaydi; lingvistik vositalarini pragmatik maqsadiga moslaydi; bo'ysundiradi. Lisoniy vositalardan unumli foydalana olsa; tuzgan nutqi o'ziga xosligi bilan o'zgalardan farqlansa;

lingvopersonologiyaning o'rganish obyekti — lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Nutq jarayonida ishtirok etayotgan lisoniy shaxsning nutq aktini amalga oshirish strategiyasini tanlashini belgilovchi bir qator ekstralingvistik omillar mavjud. Tilshunoslar asosiy ijtimoiy omillarga quyidagilarni kiritadilar: ijtimoiy masofa (distansiya); ijtimoiy mavqe; adresant va adresatning yoshi; jinsi; bilim darajasi. Lisoniy shaxsning shakllanishida yosh omilining o'ziga xos xususiyatlari haqida biz alohida so'z yuritganmiz (6). Ijtimoiy masofa muloqotga kirishayotgan nutq ishtirokchilarining tanishlik darajasi bilan belgilanadi. "O'tgan kunlar" romanida Otabekning begona shaxslar bilan birinchi bor muloqotga kirishuvi bilan bog'liq bir necha epizodlar bor. Shu epizodlarda Otabekning lisoniy shaxsiga ijtimoiy masofaning qay tarzda ta'sir etganligini va uning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishi bu holatlarda qay darajada ishonchli chiqqanligini tahlil qilamiz.

Birinchi holatga karvonsaroyda Rahmatning tog'asi Homid bilan muloqotga kirishuv jarayonini olishimiz mumkin. Yozuvchi Otabekning muloqotga kirishuv jarayonini quyidagicha tasvirlaydi: *Orada yotsirashga o'xshash bir hol bor; nima uchundir bir so'zlab ikki to'xtar edi.* Yozuvchining qahramoniga bergan ta'rifi bilan uning so'z qo'llashi bir-biriga mos keladi. *Nima desam ekan... Marg'ilonni har holda... xush ko'rdim; Marg'ilon Turkistonimizning to'qug'uchilik hunarida birinchi shahridir.* Otabekning so'z qo'llashidan ikkalanayotgan; ko'nglida kechayotganlarni bildirib qo'ymaslikka intilayotgan; ehtiyotkor; tinglovchiga; bu o'rinda shu shaharlik kishilarning ko'nglini og'ritib qo'ymaslikka harakat qilayotgan lisoniy shaxs namoyon bo'ladi. Otabekdagi bu holatni yozuvchi matnda sukut; to'xtamlar vositasida bergan. Otabek bu o'rinda savdogar ijtimoiy rolida; tabiiyki; uning nutqida shu rolga mos birliklar qo'llanilishi lozim. Tanimagan; hali sinalmagan odamlar bilan muloqotga kirishish jarayonida kasbiga mos ehtiyotkorlik taktikasini qo'llaydi. Noqulay vaziyatni bartaraf etish uchun kasbidan kelib chiqib munosabat bildiradi. Rahmatning *Marg'ilonni xushladingingizmi* degan savoliga *Turkistonda to'qug'uchilik hunarida birinchi shahridir;* deya javob berishi shu taktikaga mos keladi.

Otabekning notanish kishilar bilan muloqotga kirishuvdagi ehtiyotkorlik; sinchkovlik ikkinchi holatda; Ziyo shohichining uyida Mirzakarim qutidor va Akram hoji bilan bo'lgan uchrashuvda ham namoyon bo'ladi. Otabek nutqidagi *taassufki; kechiringiz; amak* kabi lisoniy birliklar uning yaxshi tarbiya ko'rgan shaxs ekanligiga ishora qiladi. Otabek va Mirzakarim qutidorning zindonga tashlanish voqeasidan oldingi O'tabboq qushbegi bilan bo'lgan dialogda ham kamgap; qisqa jumlar bilan javob berishi; javob o'rnida *taqsir* so'zi bilangina cheklanishi shu ehtiyotkor lisoniy shaxs qirralarini namoyon qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek; lisoniy shaxsning nutq aktini amalga oshirish strategiyasini tanlashini belgilovchi omillarlar ichida ijtimoiy masofa (distansiya) muhim sanaladi. Marg'ilonga kelib; qaynatasi tomonidan haydalgan Otabek notanish odam tomonidan

uyiga taklif qilinadi. Ko‘chada Otabek unga *aka* deb; ichkarida sham yorug‘ida *madrasa riyozatini chekkannamo* qiyofasini ko‘rib *mulla aka* deb murojaat qiladi. Ko‘rinib turibdiki; Otabek lisoniy shaxsida so‘z qo‘llash bilan bog‘liq g‘alizliklar ko‘zga tashlanmaydi. Notanish kishi bilan muloqotga kirishish jarayonida tanishish aktini amalga oshirish jarayonida Otabek yana ehtiyotkorlik strategiyasini tanlaydi; o‘zini boshqa nom bilan tanishtiradi.

— *Sizniki qayerdan; mehmon?*

— *Toshkanddan; mulla aka.*

— *Ismingiz?*

Otabek manglayini qashib olg‘ach; javob berdi:

— *Shokirbek...*

Asarda Otabekning lisoniy shaxs sifatida voqelanishi turli omillar ta‘sirida voqelanadi. Otabek qaysi ijtimoiy mavqeda bo‘lsa ham axloqli; tarbiya ko‘rgan mulohazakor shaxs sifatida gavdalanadi. Pragmatik intensiyani yuzaga chiqarish uchun turli pragmatik taktikalarni qo‘llaydi. Aytish lozimki; Otabek lisoniy shaxsida yozuvchining o‘sha davr savdogarlik bilan shug‘ullangan; madrasa ilmini olgan; yaxshi axloqli shaxsga xos eng nozik qirralarni ham ilg‘ay olganligi namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Umuman olganda; badiiy matnda lisoniy shaxsning shakllanishida ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish; yozuvchi mahoratini belgilashda; til imkoniyatlaridan qay darajada foydala olishini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Otabek lisoniy shaxsini tahlil qilish orqali quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

— nutqida savdo-sotiq; turli anjom; matolarni ifodalovchi birliklarning qo‘llanilishi savdogar ekanligidan dalolat beradi;

— *muhabbat; andisha; ayriliq; xiyonat; rashk* kabi leksik birliklarning qo‘llanilishi oshiq ekanligi ko‘rsatadi;

— nutqida murakkab qo‘shma gaplar; kiritmali birliklardan foydalanishi yuqori intellektual bilimga ega (kognitiv omil) hamda jamiyatda yuqori mavqega (ijtimoiy omil) egaligini ifodalaydi;

— qo‘lostidagilarga; xususan; Hasanaliga ota deb murojaat qilishi; sizlab gapirishi; ish buyurishda buyruq emas; iltimos ohangidan foydalanishi yaxshi tarbiya ko‘rganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. — М., 2003. — 288 с.
2. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Mehrobdan chayon. — Toshkent, 1995. — 366 b.
3. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. — Toshkent, 2018. — 240 b
4. Yo‘ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. — Qarshi, 2023. — 154 b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent, 2008. — 318 b.
6. Umurzakova M. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek Hamdam's stories) // Asian Journal of

Multidimensional Research, Vol 10, Issue 5, May, 2021, pp. 591-595
DOI: [10.5958/2278-4853.2021.00452.3](https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00452.3)

7. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. — Toshkent, 1974. — 274 b.

References

1. Gudkov D. B. *Teoriya i praktika mezhkul'turnoi kommunikatsii* (Theory and practice of intercultural communication), Moscow, 2023, 288 p.
2. Kadiri A. *Utkan kunlar. Mehrobdan chayon* (Past days. A scorpion from the altar) Tashkent, 1995, 366 p.
3. Kurbanova M. *Uzbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari* (Pragmatic features of Uzbek children's speech) Doctor's thesis, Tashkent, 2018, 240 b.
4. Yoldosheva H. *Badiiy matnning sotsiopragsmatik tadqiqi* (Sociopragmatic study of literary text), Doctor's thesis, Karshi, 2023, 154 p.
5. Safarov Sh. *Pragsmatolingvistika* (Pragsmatolinguistics), Tashkent, 2008, 318 p.
6. Umurzakova M. *Asian Journal of Multidimensional Research*, Vol 10, Issue 5, May, 2021, pp. 591-595 DOI: [10.5958/2278-4853.2021.00452.3](https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00452.3)
7. Urinbayev B. *Uzbek tili suzlashuv nutqi sintaksisi masalalari* (Problems of Uzbek colloquial speech syntax), Tashkent, 1974, 274 p.